



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING” O’N SAKKIZGA KIRMAGAN KIM BOR” QISSASIDAGI QAHRAMONLAR TALQINI

Charos Parmonova

Osiyo texnologiyalari universiteti 1-kurs magistranti

AN INTERPRETATION OF THE CHARACTERS IN SHUKUR KHOLMIRZAEV'S NOVELLA 'WHO HASN'T TURNED EIGHTEEN YET

Charos Parmonova

First-Year Master’s Student at the University of Asian Technologies

charosparmonova08gmail.com

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПЕРСОНАЖЕЙ В ПОВЕСТИ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА «КТО НЕ ДОСТИГ ВОСЕМНАДЦАТИ ЛЕТ

Чарос Пармонова,

магистрант первого курса Университета азиатских технологий

Annotatsiya

Insoniyat yashab turgan bu kurraizamin necha-nechalab rivojlanish, o’zgarish va sivilizatsiyalarni boshdan kechirib kelmoqda. Yaratilgan har qanday texnika va texnologiyalar insoniyat hayotini yengillatishga xizmat qilmoqda. Ammo shunday bir vosita borki, u odamzot ma’naviyatini, tafakkurini rivojiga hiossa qo’shadi. Bu – adabiyot. Ijodkor tomonidan yaratilgan har qanday asar ham zamonlar osha kitobxonlar tomonidan mazza qilib “iste’mol” qilinavermaydi. Qayta -qayta o’qilaverganidan, qo’lma-qo’l bo’lib hali u javonda, hali bu javonda yurgan shunday asarlar borki, go’yo o’qiganing sari qahramonlar sen yashab turgan olamda bordek, sening bir bo’lagingdek bo’lib qoladi. O’zbek adabiyotida ham



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

o'zining turfa hikoyalari, qissa va romanlari bilan alohida o'ringa ega bo'lgan, Surxandaryo zaminining yetuk farzandi Shukur Xolmirzayev asarlari yuqorida aytib o'tganimizdek kitobxonlarning sevimli asariga aylanib ulgurdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ijodkor yaratgan hikoyalarda inson ruhiyati, tabiat tasviri, turfa insonlarning bir-birini takrorlamas voqealari va hikoya qahramonlari bilan uyg'unlashib ketgan roviy nutqi mahorat bilan qalamga olingan bo'lsa, qissalarida personajlarning chigal taqdirlari, chuqur ruhiy kechinmalari, o'zaro ziddiyatlar qurshovi mohirlik bilan ochib berilgan. Adibning "Oq o'tli", "O'n sakkizga kirmagan kim bor", "Yo'llar, yo'ldoshlar", "Tuproq ko'chalar", "Yur, tog'larga ketamiz!", "Ot yili" kabi qissalarida o'ziga xos mavzu, sujeti bilan alohida ahamiyat kasb etadi

Kalit so'zlar: hikoya, qissa, pesonaj, nutq, roviy, ruhiyat, sujet, Oq o'tli, Tuproq ko'chalar, O'n sakkizga kirmagan kim bor, roman

Annotation

Throughout its existence, humanity has witnessed numerous stages of development, transformations, and civilizations on this planet. Every technique and technology created aims to simplify human life. However, there is a medium that contributes to the development of human spirituality and intellect: literature. Not every work created by a writer is savored by readers across generations. There are works that are repeatedly read, passed from hand to hand, and found on various bookshelves, as if the characters exist in the same world as the reader, becoming a part of them. In Uzbek literature, the works of Shukur Kholmirzaev, a prominent figure from Surkhandarya, hold a special place with their diverse stories, novellas, and novels. It would not be an exaggeration to say that his works have become beloved by readers. In his stories, the human psyche, depictions of nature, unique



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

events of diverse people, and the narrator's voice, intertwined with the story's characters, are skillfully captured. In his novellas, the intricate fates of characters, deep emotional experiences, and the environment of mutual conflicts are masterfully revealed. The novellas "The White Horse," "Who Hasn't Turned Eighteen Yet," "Roads, Companions," "Dirt Streets," "Let's Go to the Mountains!," and "Year of the Horse" stand out with their unique themes and plots.

Keywords: story, novella, character, speech, narrator, psyche, plot, The White Horse, Dirt Streets, Who Hasn't Turned Eighteen Yet, novel

Аннотация

На протяжении своего существования человечество было свидетелем многочисленных этапов развития, преобразований и цивилизаций на этой планете. Каждая созданная техника и технология направлена на упрощение человеческой жизни. Однако существует средство, которое способствует развитию духовности и интеллекта человека: литература. Не каждое произведение, созданное писателем, с удовольствием воспринимается читателями на протяжении поколений. Существуют произведения, которые неоднократно перечитываются, передаются из рук в руки и находятся на разных книжных полках, как будто персонажи существуют в том же мире, что и читатель, становясь его частью. В узбекской литературе произведения Шукура Холмирзаева, выдающегося деятеля из Сурхандарьи, занимают особое место своими разнообразными рассказами, повестями и романами. Не будет преувеличением сказать, что его произведения стали любимыми у читателей. В его рассказах искусно запечатлены человеческая психика, описания природы, уникальные события разных людей и голос рассказчика, переплетающийся с персонажами рассказа. В его повестях мастерски



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

раскрываются запутанные судьбы персонажей, глубокие эмоциональные переживания и среда взаимных конфликтов. Повести «Белый конь», «Кто не достиг восемнадцати лет», «Дороги, попутчики», «Грунтовые улицы», «Пойдем в горы!», «Год лошади» выделяются своими уникальными темами и сюжетами.

Ключевые слова: рассказ, повесть, персонаж, речь, рассказчик, психика, сюжет, Белый конь, Грунтовые улицы, Кто не достиг восемнадцати лет, роман

O'zbek adabiyotida qissa janri alohida o'rin egallaydi. Negaki, personajlar va turfa taqdirlarning o'zgacha hayotiy voqealarini keng ko'lamda aks ettirilishi, asardagi ko'zda tutilgan g'oya, yoritilayotgan jamiyat-bularning barchasi qissaning o'zig xos xususiyatlaridan biridir. Qissa janri haqida ko'pgina ijodkorlarning olib brogan ilmiy izlanishlarini ham kuzatishimiz mumkinki, qancha ko'p o'rganilsa shuncha ko'p yangicha qarashlar paydo bo'laveradi. Jumladan, T.S.Mo'minova ham o'z maqolasida "Hozirgi o'zbek qissachiligi, unda yuz berayotgan janriy izlanish va yangilanishlar yaratilayotgan qissalardagi qamrov ko'laming kengligi, shakl va mazmundagi yangi jihatlari hamda rang-barangligi bilan istiqlol davri o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega. "Qissa turlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga tayanilgan holda istiqlol davri qissalari mavzu-mundariyasi va qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan quyidagi turlarga ajratildi: 1) biografik; 2) lirik; 3) sarguzasht-detektiv; 4) satirik; 5) esse-qissa; 6) dramatik qissa; 7) kinoqissa; 8) maktub-qissa; 9) monolog-psixologik qissa; 10) urush qissalari [1] degan fikrlarni bildirib o'tgan. Yozuvchi Shukur Xolmirzayev qissalariga keladigan bo'lsak, ijodkorning "O'n sakkizga kirmagan kim bor" qissasi Tilov va Jamshidning bir-biriga o'xshash taqdiri va bir-biriga mutlaqo o'xshamaydigan xarakteri, ularning ruhiy kechinmalari, muhabbatda ikkilanish, o'zaro munosabatlardagi ziddiyatlar



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

o'zgacha bir yondashuv orqali ochib berilgan. Otasidan ajralgan Jamshid va onasidan ayrilgan Tilovning kutilmaganda aka-uka bo'lishi, Jalolov va Zaynabxonlarning qabul qilgan qarorlari ikki yoshning ruhiyatida ma'lum bir darajada o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Jamshidning Muslima buviga beradigan javobsiz savollari murg'ak yoshning kattalar qabul qilgan qarorlariga ko'nikishi oson kechmasligi kitobxonning ham ruhiyatiga beixtiyor ko'chadi.

- Jamshid, shu kishini yaxshi ko'rasanmi?- so'radi buvi ishdan to'xtamay.
- Qaysi kishini? Rayis amakinimi?
- Ha.
- Yaxshi ko'raman. Tilovni- yo'q...
- Ota qilasanmi?
- O'zimning otam-chi? Bor-ku? Kampir qo'lidagi cho'pni o'tga irg'itdi.Tumshaydi.
- U otang yo'q.Endi shu odam sening otang bo'ladi...O'zingni otang bo'ladi.
- O'zimni otam..Bu kishi o'xshamaydi-ku u otamga?
- O'xshaydi.U otang ham shu kishiday edi.
- Yo'q-yo'q.U kishining sochi jingalak-jingalak bo'lgan.[2]

Jamshid, Tilov va Umidaning o'zlari ham to'la anglab yetmagan muhabbatlarining achchiq qismati, Umidaning javobsiz muhabbatdan o'ch olish maqsadida Tilovning sof tuyg'ularini qurbon qilishi yozuvchining mohir qalamida so'z orqali shunday tasvirlanganki, hech bir kitobxonda "nega?" degan savolga o'rin qolmaydi. Bu qissa har qanday kishining ham o'n sakkiz bahorida uchraydigan sof tuyg'ularini hech qanday bo'rttirish yoki ortiqcha vositalarsiz ifodalab bera olishi adibning yana bir bor ijodkorlik mahoratini yuksak ekanligining dalili bo'la oladi. Inson umrida uchrab turguvchi bunday muammolar talqini Jamshid, Tilov,Umidalar timsolida yoshlarimizga saboq bo'lmog'i lozim. Adabiyot shuning uchun ham bejizga So'z san'ati deyilmagan. Har qanday ijodkor qaysi mavzuda



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

asar yozmasin, unda inson va uning qismati, ijtimoiy davr, muhit o'z ifodasini topadi. Yozuvchi esa urg'uni aynan ma'naviy ozuqa berishga qaratadi. Zero, jamiyat insonlar bilan, inson esa insoniylik xislatlari bilan tirik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mo'minova T.S ZAMONAVIY O'ZBEK QISSALARINING QIYOSIY TAHLILI JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS |20-06-2024|
2. Sh.Xolmirzayev. "O'n sakkizga kirmagan kim bor" Turon Zamin" nashriyoti T-2023
3. Kadirova Ruxsora "Shukur Xolmirzayev qissalarida bolalar ruhiyatining ochib berilishi". "Ommaviy axborot vositalarida til va adabiyot uslubiy masalasi: tahlil, tasnif, qiyos" mavzusida xalqaro ilmiy -amaliy konferensiya. 2023-yil
4. Ergashev Aslbek Xamza o'g'li. QISSACHILIKNING TARAQQIYOT TENDENSIYALARI VA O'ZIGA XOSLIK . Qo'qon universiteti xabarnomasi. 2026